

FANLARNI O`QITISHDA INNOVATSION METODIKALAR

Umarova Mahliyo Bahodirovna

Navoiy viloyat Navbahor tuman 1-umumiy o`rta ta`lim maktabi
boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Joriy yil mamlakatimizda “Ilm, ma`rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb omlanib, bu borada ta`lim sohasida ham muhim ishlar amalga oshirilishi belgilandi.

Mamlakatimizda barcha fanlarni o`qitish jarayoniga yangi pedagogic va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bugungi kun talablarida sanaladi. O`quvchini dars mashg`ulotlarida majburan ishtirokchisi sifatida partada o`tirishga yo`l qo`ymasligimiz kerak. Uni darsning faol ishtirokchisiga aylantirishimiz lozim. Buning uchun fanlarni o`qitishda innovatsion metodikalardan foydalanish zarur.

Innovatsiya –(inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma`noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha “texnos”- san`at, mahorat va “logos”- fan so`zlaridan olinib innovatsiyon texnologiya ta`lim tarbiya shakillari, metodlari va usullariga yangicha yondashish degan ma`noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogic jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga, yangilik, o`zgarishlar kiritishdir. Demak biz o`qituvchilar ham dars mashg`ulotlarimizga noanaviy ta`lim o`yinlari orqali bolalar borliqini o`rganadi va dunyoni o`zlashtirishga harakat qiladi. Ta`limiy o`yinlardan barcha fanlarda foydalanish o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, diqqatini jamlashga, o`quvchilarni tez fikrlash nutqini mantiqan bog`lashga, xotirani rivojlantirishga yordam beradi.

Oqish darslarida ta`limiy o`yinlardan foydalanish.**“Kim topqir” metodik o`yini.**

O`quvchilar guruhlariga bo`linadi. Guruh o`quvchilari tabiat hodisalari haqida topishmoqlarni topishi lozim. Qaysi guruh topishmoq javobini ko`p tpsa, shu guruh g`olib bo`ladi.

Topib o`qi mashqi o`tkaziladi. Bunda o`quvchilar o`qituvchi tomonidan o`qigan misra yoki parchani she`r yoki matndan topib o`qishi lozim.

“Tilsim” metodik o`yini.

O`qituvchi o`z bilimiga ishongan bir nechta o`quvchilarni taklif etadi. Ular bir qator bo`lib o`qituvchi tomonga qarab turib olishadi. Ularga tezkor va javobi oddiy savollar beriladi qaysi o`quvchi birinchi va aniq javob bersa bir qadam yuradi. Qaysi o`quvchi to`rt qator yurib o`qituvchiga yaqinlashguncha o`yin davom etadi va shu bilimdonni g`olib deb e`lon qiladi.

Xotira mashqi

O`yin sharti oddiy. O`quvchi o`zini sinamoqchi bo`lgan o`quvchiga 10 ta so`zni ikki marta o`qib beradi Ishtirokchi qanchalik ko`p so`zni eslab qolgan bo`lsa rag`batlantiriladi.

O`yinni faqat o`g`zaki tarzda o`qib beriladigan so`zlardan emas, tayyorlab kelingan bir nechta narsalarning suratini ko`rsatib ham o`ynash mumkin.

Ona tili darsida ta'limiy o`yinlardan foydalanish.

“Kun va tun” metodik o`yini.

O`qituvchi sinf taxtasiga bir nechta so`zlarni yozadi. O`quvchilarga so`zlarni o`qib olishni, keyin esa ko`zlarini yumib turishni taklif etadi. O`quvchilar ko`zlarini yumganda o`qituvchi sinf taxtasiga yozilgan so`zlarni birini harfini o`zgartirib yozadi va ko`zlarini o`chib qaysi so`z o`zgarganini so`raydi. Masalan: yod, bod, afzal, sur`at. Ushbu so`zlardan biri quyidagicha yozilishi mumkin: yoe, bop, avzal, surat. O`zgartiruvchi so`zlar qancha bir biriga o`xshash bo`lsa, o`quvchilarni shunchalik ziyrakdikka undaydi.

“O`zim tekshiraman” metodik o`yini

Bu o`yinni darsning avvalida o`tkazish mumkin bo`lib, bunda kichik hajmli dektant matn tanlanadi. O`quvchilar topshiriqni bajarib bo`lgach, o`qituvchi proektor orqali dektant matnni namoyish qiladi, o`quvchilar esa xatolarini tekshirib, yozgan matnni taqqoslaydi.

“Hikoya tuz” metodik o`yini.

O`yinda sinf bir nechta so`z yozib qo`yilgan bo`lib, bolalar shu so`zlar ishtirokida mustaqil hikoya tuzadilar. Bu jarayonda ularning lug`at boyligi o`keshqsrsh bilan birgalikda , gaplarni tartib bilan tuzish, tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Matematika darslarida ta'limiy o`yinlardan foydalanish.

“Matematika fanlar ichra shor, uning sirlaridan bo`lingiz ogoh!”, - deb takidlanganlar ulug` olim Qori Niyoziy. Darxaqiqat matematika juda qiziq fan uni innovattsion metodlar bilan boyitib o`tish har bir ilg`or pedagogning mahoratiga bog`liq. Men sizlarga matematika darslarida qo`yidagi metodik o`yinlardan foydalanishni tavsiya etaman.

“Matematik atamalar” metodik o`yini.

Bu o`yinda bir nechta o`quvchi ishtirok etishi mumkin. O`quvchilar bir qator bo`lib turishadi va navbat bilan har bir o`quvchi matematikaga oid atamalarni aytadi. Bunda bir o`quvchi aytgan atamani boshqa o`quvchi aytib qo`ysa, u o`yinni tark etadi. Agar o`quvchi atama bilmay 5 soniya to`xtab qolsa ham o`yinni tark etadi. O`yin bitta o`quvchi qolguncha davom etadi.

“Xo`p” metodik o`yini

Bu o`yinda butun sinf ham qatnashishi mumkin. Bu o`yinda 1 dan boshlab natural sonlarni sanash lozim. Har 3 ga karrali son kelganda bu sonni aytmay “Xo`p” deyish kerak. Agar qatnashchi 3ga karrali sonni aytib qo`ysa yoki to`xtab qolsa, u yutqazadi va o`yinni tark etadi. Qolgan

o`yinchilar o`yinni yana kelgan joyidan davom ettiradi 5 daqiqa davomida qatnashgan o`quvchilar g`olib sanaladi. Bu o`yinda 1 ta o`quvchi emas bir nechta o`quvchi g`olib bo`lishi mumkin.

“Zinama-zina” metodik o'yini.

O'qituvchi komp'yuterga yoki yozuv taxtasiga zina ko'rinishida bir nechta misol yozadi. Misollar pastdan yuqoriga qarab ishlanadi. Bunda ikkita o'quvchi ishtirok etadi zinani ikki tomonidan, misollarni yechadilar. Kim zinaning cho'qqisiga birinchi chiqsa va misollarni to'g'ri ishlagan bo'lsa o'sha g'olib bo'ladi.

“Sinkveyn” usuli

Sinkveyn – fransuzcha soʻz boʻlib, “beshlik” degan maʼnoni bildiradi.

Bu usulni qoʻllashda bir savolga beshta mantiqiy toʻgʻri sinonim javob yozish talab qilinadi. Javoblarni yozganda, birinchi qatorga – bir soʻzli, ikkinchi qatorga – ikki soʻzli, uchinchi qatorga – uch soʻzli, toʻrtinchi qatorga – toʻrt soʻzli va beshinchi qatorga yakuniy toʻgʻri fikr yoziladi.

Masalan:

1. Funksiya
2. Toʻplamlarni akslantirish
3. Toʻplamni toʻplamga akslantirish
4. Toʻplamlarni bir qiymatli akslantirish
5. Matematik tushuncha

Xulosa qilib aytganda bugungi kun o'quvchisini bugungi zamonaviy talablar asosida o'qitishimizni davr taqazo etmoqda. Zero hozir yangi texnologiyadar hayotimizdan chuqur joy olayotgan bir davrda fanlarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, biz ta'lim jrayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etishimiz shart. Zero xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalariga navbatdagi Murojatnomasi 2020 yil 24 yanvar.
2. O'qituvchilar uchun internet saytlari. Ziyonet, Xalq ta'limi xodimlari rasmiy kanali
3. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Xalqaro konferensiyada soʻzlagan nutqi.Tash 2012 yil 17 bet